

**DIALEKTOLOGIYA VA DIALEKTOGRAFIYA (LEKSIKOGRAFIYA)
SOHASINING O'RGANILISH TARIXI****Bobosherova Madina Tolibjon qizi***O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek dialektologiyasi fanining mazmun-mohiyati, uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, ijtimoiy va geografik omillar tahlil qilinadi. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, turli hududlarda shakllangan shevalari bilan boy til tizimini hosil qilgani ta'kidlanadi. Shuningdek, shevalarning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari, ularni tadqiq etgan olimlarning hissasi hamda mustaqillik yillarida olib borilgan leksikografik ishlanmalar, xususan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"ning yaratilishi haqida ma'lumotlar beriladi. Mamlakatda til siyosati, jumladan, "Davlat tili to'g'risida"gi qonun va Prezident murojaatnomasida ilgari surilgan g'oyalar dialektologiya rivojiga ta'siri nuqtai nazaridan yoritiladi. Maqola davomida o'zbek shevalarining o'rganilishi, tasnifi va dolzarbligi, ularni XXI asrda chuqur ilmiy tadqiq qilish zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek dialektologiyasi, sheva, lahja, turkiy tillar, leksikografiya, fonetika, leksika, morfologiya.

Dialektologiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini o'rganadi.

O'zbek tili turkiy tillar oilasining janubiy-sharqiy (qarluq) guruhiga mansub bo'lib, keng hududlarda tarqalgan. Tarixiy, geografik va ijtimoiy omillar natijasida o'zbek tilining turli hududlarda shakllangan ko'plab shevalari mavjud. Bu holat o'zbek tilshunosligida mustaqil yo'nalish – o'zbek dialektologiyasining shakllanishiga olib keldi.

Lug'atlarning muayyan xalq ma'naviyati va milliy madaniyatida muhim o'rin egallashi isbot talab qilmaydigan holatdir. Ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'atlar ma'lum ijtimoiy vazifalar berishi, uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtirishi tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish va tartibga solishga yordam berishi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, doimo zamonga hamnafas tarzda mukammallashib borishi zarur. Biroq lug'atlar qanchalik zamonaviy mukammal bo'lmasin, davrdan ma'lum darajada orqada qolib, so'zlar ular ifodalagan narsa va hodisalar o'rtasida u yoki bu o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlarni qayd etadilar.

Shevashunosligimiz tarixi XI asrning mashhur tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariy nomi bilan chambarchas bog'liq. Uning "Devonu lug'atit turk" asarida turkiy xalqlar shevalari, so'zlari arab tilida izohlanib, yigirmaga yaqin turkiy tillarni ma'lum darajada o'zida jamlagan mukammal va bebaho lug'atlardan biri sanaladi. Shu asarning "Indeks lug'ati" ham olimlar tomonidan 1967-yilda tayyorlanib, nashr etilgan. Mana shu lug'at tufayli turkiy qabila-urug'larning tillari bir bobo tildan rivojlanib, taraqqiy etganligi haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar tasdiqlandiki, bu orqali ona tilimizning o'ziga xos nufuzi va tarixiy taraqqiyoti dalillar vositasida o'z aksini topdi. Hazrat Alisher Navoiy ham bundan salkam olti asr oldin mana shu turkiy

tilda, ya'ni eski o'zbek adabiy tilida olamshumul asarlar yozib, o'z oltin qalami bilan jahonni zabt etgani barchaga ma'lum. Xonliklar davrida ham, garchi o'sha vaqtda o'zbek tili bo'yicha chuqur ilmiy asoslarda tadqiqotlar olib borilmagan bo'lsa-da, u o'zining ijtimoiy hayotdagi mavqeyini saqlab qolganligi tarixda rad qilib bo'lmaydigan dalillar orqali o'z ifodasini topgan.

1989-yilning 21-oktabrida "Davlat tili haqida" qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Ushbu maqomni bergan qonun ona tilimizga, shuningdek, o'zbek xalq shevalariga jiddiy e'tibor qaratib, ilmiy tadqiqotlar olib borilishiga qonuniy imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kun nuqtayi nazaridan shevalar fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi, so'z yasalishi va sintaksisi tizimini ilmiy-nazariy va amaliy jihatlardan jiddiy tadqiq etish lozim. Agarda shevalarimizning yuqorida ko'rsatilgan jihatlari dialektal so'z turlari misollari vositasida qayta tahlil va talqin etilsa, ular to'g'risidagi metodologik nazariyalarimiz yanada ortishi, to'ldirilishi hamda shevalarimizga xos milliy va mafkuraviy qarashlarimiz boyishi shubhasiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasidagi: "Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim", – degan fikrlari "O'zbek dialektologiyasi" sohasiga ham to'g'ridan to'g'ri taalluqlidir.

Shevashunoslikning buguni va kelajak taraqqiyotiga oid bu kabi amalga oshirilmagan, biroq amalga oshirishni mustaqilligimiz va milliy mafkuramiz talab qilib turgan muammolarning oqilona yechimi masalasi murakkab ishlardan bo'lib, uni quyidan tashabbus bilan olib chiqib bo'lmaydi. Balki mamlakatimiz hukumati ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining tarmoqlariga e'tibor berayotganidek, shevalarni ham XXI asrdan turib ilmiy va amaliy asoslarda o'rganish uchun ularning homiyligi hamda ko'magidagina bunday ulug', muqaddas hamda miqyosi benihoya katta bo'lgan ishlarni amalga oshirish mumkin. Mana shunday vazifalardan biri o'zbek xalq shevalarining leksikografik tadqiqi masalasidir.

Shu o'rinda o'zbek istiqlol yillarida nashr etilgan yangi besh jildan iborat „O'zbek tilining izohli lug'ati“ haqida ikki og'iz so'z.

„O'zbek tilining izohli lug'ati“ o'zbek va jahon lug'atchiligining yangi ijobiy yutuqlarini, O'zbekiston mustaqillik yillarida hayotimizda ro'y bergan, o'zbek tili leksikasida sodir bo'lgan yangiliklarni e'tiborga olib yaratilgan yangi lug'atdir. Bu lug'at akademik A.Hojiyev, professor E.Begmatov, E.Umarov, N.Mahmudov, A.Madvaliyev, Z.Mirahmedova, D.Xudoyberdiyeva, M.Sodiqova kabi taniqli tilshunoslarning, tahrir hay'ati rahbari professor T.Mirzayevning mashaqqatli va muntazam izlanishlari, zargarona mehnatlari mahsulidir. O'zbek tiling ushbu izohli lug'ati keng xronologik doirada o'zbek tilining butun so'z boyligini emas, balki hozirgi zamon o'zbek tilining keng iste'moldagi so'z boyligini to'plash va tavsiflashni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Chunki o'zbek tili XX asrning 2-yarmida, xususan, keyingi o'n yilda yangi so'zlar, so'z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi. Unda yangi me'yor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar tilning fonetik tarkibi va alifbosida ham, imlo va talaffuzda ham, morfologik va leksik-semantik tuzilmasida ham, stilistikasi va grammatik qurilishida ham ozmi-ko'pmi o'z aksini topdi. Ayniqsa, o'zbek tili leksikasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonda sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, texnika va madaniyatning beqiyos taraqqiyoti

mamlakatimizda yangi iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda o'zbek tili lug'at tarkibida juda ko'p yangi so'zlar va terminlar yuzaga keldi. Ko'pgina so'zlarning ma'nosi o'zgardi, kengaydi, ayrim so'zlarning ma'nosi yanada aniqlashdi, o'zaro farqlandi. Bularning barchasi lug'atda o'z ifodasini topgan.

O'zbek shevalarining o'rganilishi va tasnif qilinishida jahon ilm-faniga munosib hissa qo'shgan olimlar – professor E.D. Polivanov, K.K. Yudaxin, G'ozil Olim, A.K. Borovkov, V.V. Reshetovlarning xizmatlari beqiyosdir. Aynan shu olimlar rahbarligida bir qator mahalliy o'zbek tilshunoslari yetishib chiqdi. O'zbek shevalari akademik Sh. Shoabdurahmonov, professor va fan doktorlari M. Mirzaev, F. Abdullaev, S. Ibrohimov, H. G'ulomov, Y. G'ulomov, A. Aliev, A. Shermatov, A. Jo'raev, O. Madrahimov, T. Yo'ldoshev, N. Rajabov, X. Doniyorov, T. Nafasov, Q. Muhammadjonov, Y. Ibrohimov, H. Murodova va boshqa yetuk olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Ushbu professorlar va fan doktorlari bilan bir qatorda, 50 ga yaqin fan nomzodlari hamda dotsentlar o'zbek shevalarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar va olib bormoqdalar. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida o'zbek dialektologiyasi mustaqil fan sifatida shakllandi, o'zbek tilining deyarli barcha lahja va shevalari sinxronik tarzda o'rganildi, ularning lug'atlari tuzildi, xususiyatlari tahlil qilindi. Bugungi kunda ham o'zbek dialektlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan ilmiy tadqiqot ob'yekti bo'lib qolmoqda. Xususan, o'zbek shevalarining fonologiyasi, turkiy dialektologiya bilan bog'liq jihatlari, etimologiyasi va turkiy tillar bilan qiyosiy tahlil asosida o'rganilishi zarur bo'lgan nazariy masalalar sirasiga kiradi. Bunday ilmiy yo'nalishlar o'zbek tilshunosligining taraqqiyotiga, nazariy asoslarining boyishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Navro'z, 2016. – B. 150.
2. Mahmadiyev Sh., T.J. Enazarov. O'zbek dialektologiyasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2021. – B. 263.
3. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent, 2012. – B. 152.
4. Madvaliyev A. Yangi lug'atlar yaratish davr taqozosi. // O'TA. 2006. №4. – B. 16.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 22.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. 1-jild. – B. 5.